“BRB Lift” realiti-shou loyihasi
REGLAMENTI

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Reglament “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank) tomonidan amalga oshiriladigan “BRB Lift” realiti-shou loyihasini (keyingi o‘rinlarda – Loyiha) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Loyihaning asosiy maqsadi – ayollarning kichik biznesini qo‘llab-quvvatlash, ayor tadbirkorlik tashabbuslarini ommalashtirish, biznes yuritish ko‘nikmalarini oshirish va aholiga ilhomlantiruvchi, amaliy qiymatga ega kontent taqdim etishdan iborat.

1.3. Loyiha O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, jumladan “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Reklama to‘g‘risida”, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq o‘tkaziladi.

1.4. Loyihada ishtirok etish tartibi, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari, saralash bosqichlari, televizion ko‘rsatuv formatlari hamda g‘olibni aniqlash mexanizmi ushbu Reglament va Ommaviy oferta shartnomasi bilan tartibga solinadi.

1.5. Loyihada ishtirok etish uchun ariza qoldirgan shaxs ushbu Reglament va Ommaviy oferta shartnomasi shartlari bilan to‘liq tanishgan va ularga rozi bo‘lgan hisoblanadi.

2. Loyihaning maqsad va vazifalari

2.1. Loyihaning asosiy maqsadlari:

- ayollarning kichik biznes va tadbirkorlik loyihalarini aniqlash va rivojlantirish;
- tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishda Bankning yetakchi hamkor sifatidagi mavqeini mustahkamlash;
- keng auditoriyaga zamonaviy biznes tafakkurini targ‘ib qilish;
- mentorlar ishtirokida amaliyotga asoslangan biznes maktab formatini yaratish.

2.2. Loyihaning asosiy vazifalari:

- ayol tadbirkorlarning arizalarini qabul qilish va saralash;
- 90 ta atrofida eng yaxshi biznes loyihani tanlab olish, ular orasidan 24 ta atrofidagi ishtirokchini mentorlar jamoalariga ajratish va yakunda 6 ta atrofidagi finalchini aniqlash;
- finalda hay’at a‘zolaridan eng ko‘p ovoz yig’gan loyihaga 500 000 000 (besh yuz million) so‘m miqdorda mukofot ajratish va finaldagi barcha loyihalar uchun investorlarga chiqish imkoniyatini taqdim etish.

3. Asosiy atamalar

3.1. Loyiha – “BRB Lift” nomli, belgilangan telekanalda va raqamli kanallarda namoyish etiladigan, tadbirkorlik haqidagi realiti-shou.

3.2. Tashkilotchi – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB.

3.3. TV-hamkor (Efir operatori) – Belgilangan telekanal.

3.4. Ishtirokchi – O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, kamida 1 yil ishlayotgan biznesga ega bo‘lgan "ayol tadbirkorlar" – yuridik shaxs (yoki ularning vakili) yoki Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lib, Loyiha doirasida ariza topshirgan shaxs qatnashishlari mumkin. Ta’sischilari tarkibida ayollar ulushi 50%dan yuqori bo‘lishi va ayollar rahbarligida bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari / tadbirkorlar bo‘lishi lozim.

3.5. Mentor – tajribali tadbirkor, biznes sohasidagi mutaxassis bo‘lib, ishtirokchilarni tanlash, ular bilan ishlash va finalga tayyorlash ishini amalga oshiradi.

3.6. Hay’at a‘zolari – final bosqichida ishtirokchilar loyihalarini moliyaviy va strategik jihatdan baholovchi, ehtimoliy investitsiya manbai hisoblangan jismoniy va yuridik shaxslar.

3.7. Mukofot pili – Loyiha g‘olibiga biznesini rivojlantirish maqsadida korxonasining hisob raqamiga ajratiladigan 500 000 000 (besh yuz million) so‘m miqdordagi mablag’.

4. Tashkilotchilar va ularning vakolatlari

4.1. Bank:

- Loyihaning umumiy konsepsiyasi, moliyaviy va tashkilotchilik jihatlarini belgilaydi;
- Loyiha budjetini tasdiqlaydi;
- Tanlov mezonlari, saralash bosqichlari va ishtirok etish shartlarini belgilaydi;

4.2. Media bo‘yicha bankning hamkori:

- TV formatini, efir setkasini va s’yomka jadvalini shakllantiradi;
- Studiya va sayyor s’yomkalarni amalga oshiradi;
- Efirda kontentni montaj qilish va efirga uzatish uchun javobgar hisoblanadi;
- Ommaviy oferta, reglament, ariza shakli va boshqa me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

5. Ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar

5.1. Loyihada quyidagi toifadagi arizachilar ishtirok etishi mumkin:

- kichik biznes sub’ektlari (yakka tartibdagi tadbirkor, MChJ, fermer va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar);
- biznes faoliyati kamida 1 yil amalda bo‘lgan tadbirkorlar;
- amaliy biznesga ega yoki aniq ishlanmaga ega tadbirkorlar.

5.2. Asosiy talablar:

- Ta’sischilari tarkibida ayollar ulushi 50%dan yuqori bo‘lishi va ayollar rahbarligida bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari / tadbirkorlar;
- biznes yoki biznes-goyaning O‘zbekiston hududida amalga oshirilishi;
- qonuniy faoliyat turi;
- ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarning to‘liq va haqqoniy bo‘lishi;
- videotasvir, intervyu va efirda ishtirok etishga rozilik berishi.

5.3. Ushbu talablarga javob bermaydigan arizalar Tashkilotchi tomonidan rad etilishi mumkin.

6. Ariza topshirish tartibi

6.1. Arizalar maxsus ishlab chiqilgan Telegram-bot orqali onlayn qabul qilinadi;

6.2. Ishtirokchi ariza shaklida quyidagi ma’lumotlarni taqdim etadi:

- F.I.Sh. va yuridik shaxs nomi;
- aloqa ma’lumotlari;

- biznes faoliyat sohasi;
- biznesning qisqacha tavsifi va maqsadi;
- biznesning hozirgi holati (kirimi, mijozlar segmenti, geografiya va h.k.);
- Loyihada ishtirokdan kutilgan natijalar.
- Telegram bot orqali so‘raladigan boshqa ma’lumotlar.

6.3. Arizalar qabul qilish muddati, Loyihaning rasmiy axborot kanallarida alohida e’lon qilinadi.

6.4. Telegram-botda ariza topshirish orqali ishtirokchilar shartlar bilan tanishganligini va Ommaviy oferta shartnomasi hamda ushbu Reglamentni aksept qilgan hisoblanishadi.

6.5. Arizani yuborish ishtirokchini kastingda yoki finalda ishtirok etishini kafolatlamaydi; saralash natijalari Tashkilotchi yoki mentorlar tomonidan ichki mezonlar asosida qabul qilinadi.

7. Loyihaning bosqichlari

7.1. 1-bosqich: Arizalarni qabul qilish va dastlabki saralash (onlayn)

7.1.1. Belgilangan muddat davomida barcha arizalar onlayn tarzda qabul qilinadi.

7.1.2. Tashkilotchi va media hamkor tomonidan formal talablarga moslik, biznesning qonuniyligi, o‘sish salohiyati va ijtimoiy ahamiyati kabi mezonlar bo‘yicha dastlabki baholash amalga oshiriladi.

7.1.3. Natijada kastingda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan 90 ta atrofida ishtirokchi aniqlanadi.

7.2. 2-bosqich: TV kasting va mentorlar tomonidan tanlash.

7.2.1. 90 ta atrofida ishtirokchi televidenie kastinglariga taklif qilinadi va ushbu bosqich belgilangan telekanal efirida realiti formatida namoyon etiladi.

7.2.2. Kasting davomida ishtirokchilar qisqacha pitch ko‘rinishida o‘z bizneslarini taqdim etishadi.

7.2.3. 6 nafar mentor har biri o‘z jamoasiga 4 tadan ishtirokchi tanlab oladi. Jami – 24 nafar ishtirokchi.

Ushbu sonlar vaziyatga qarab o‘zgarishi mumkin.

7.2.4. Tanlov jarayoni teletasvirga olinadi va realiti-shouning ilk sonlari sifatida efirga uzatiladi.

7.3. 3-bosqich: Bizneslarni tahlil qilish va rivojlantirish

7.3.1. Har bir mentor o‘z jamoasidagi 4 ishtirokchi biznesini joyiga borib o‘rganish, moliyaviy va operatsiya jarayonlarini tahlil qilish va rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish orqali chuqur tahlil qilishi mumkin.

7.3.2. Ushbu bosqich doirasida 6 ta dastur efirga uzatiladi (har bir mentor jamoasiga alohida son ajratilishi mumkin).

7.3.3. Bosqich yakunida har bir mentor o‘z jamoasidan 1 nafar ishtirokchiga finalga tavsiya beradi. Jami 6 nafar finalchi aniqlanadi.

Vaziyatga qarab finalga qo‘shimcha 1 ta ishtirokchi o‘tkazilishi mumkin.

7.4. 4-bosqich: Final va g‘olibni aniqlash.

7.4.1. Final sonida 6 nafar ishtirokchi hakamlar hay’ati, mentorlar va boshqa vakillaridan iborat savol-javoblar ishtirokida ochiq pitch sessiyasini amalga oshiradilar.

7.4.2. Baholash kamida quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi: biznes modelning barqarorligi va rivojlanish salohiyati, moliyaviy natijalar va prognozlar, ijtimoiy ta’sir, ishtirokchining

shaxsiy kompetensiyasi va jamoa salohiyati, Loyihada ishtirok davomida amalga oshirilgan o‘zgarishlar.

7.4.3. Baholash ko‘rsatkichlari hayat a’zolari tomonidan taqsimlanadi; aniq mexanika va salmoqlar alohida baholash reglamentida ko‘rsatiladi.

7.4.4. Eng yuqori yakuniy baholashga ega bo‘lgan ishtirokchi Loyiha g‘olibi deb topiladi va unga 500 000 000 (besh yuz million) so‘m miqdorida mablag’ ajratiladi.

8. Mentorlar va ekspertlar kengashi

8.1. Mentorlar soni – 6 nafar. Ular tadbirkorlik, investitsiyalar, moliya, marketing yoki boshqa tegishli sohalarda tajribaga ega bo‘lgan shaxslardan shakllantiriladi.

8.2. Mentorlar kasting bosqichida ishtirokchilarni tanlashda, jamoasidagi bizneslarni tahlil qilish va rivojlantirishda, final bosqichida g‘olibni aniqlashda ishtirok etadilar.

8.3. Ekspertlar tarkibi Bank tomonidan tasdiqlanadi, ularning ro‘yxati veb-saytda e’lon qilinadi.

9. TV ko‘rsatuv formati va efir tartibi

9.1. Loyiha janri – reality-shou, biznes-loyiha.

9.2. Bir mavsum – taxminan 12 ta sonidan iborat bo‘lib, har bir sonining xronometraji 45–55 daqiqani tashkil etadi.

9.3. Efir davriyligi – haftalik, efir kun va vaqti belgilangan telekanal setkasiga muvofiq belgilanadi.

9.4. Ko‘rsatuv tillari – asosiy til: o‘zbek tili (zarur hollarda boshqa tilidagi lavhalar subtitrlar yoki ovozli tarjimalar bilan ta’minlanishi mumkin).

9.5. Tashkilotchi tashkiliy sabablarga ko‘ra efir vaqtlari, sonilar tartibi va shaklini o‘zgartirish huquqini saqlab qoladilar.

10. Mukofotlash tartibi

10.1. Mukofot miqdori – 500 000 000 (besh yuz million) so‘m bo‘lib, Loyiha g‘olibi mablag’ni biznesini rivojlantirishga yo‘naltiradi.

10.2. Mukofot mablag‘ini ajratish shartlari va tartibi alohida shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi.

10.3. Mukofotlarga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash va to‘lash amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi; zarur hollarda ularni manbada ushlab qolish huquqiga ega.

10.4. Tashkilotchi va media-hamkor alohida qaroriga ko‘ra qo‘shimcha nominatsiyalar, maxsus sovrinlar va sheriklar mukofotlarini joriy etishi mumkin.

11. Axborot siyosati va intellektual mulk

11.1. Ishtirokchining tasviri, ovozi, ish joyi, logotipi va boshqa materiallari TV efir, internet-platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va reklama materiallarida Bank va media-hamkor tomonidan bepul, muddat va hudud bo‘yicha cheklanmagan holda foydalanilishi mumkin.

11.2. Loyiha doirasida olingan barcha video, foto, audio va boshqa materiallar Tashkilotchining intellektual mulki (yoki unga berilgan noeksklyuziv huquq) hisoblanadi.

11.3. Ishtirokchi Loyiha nomi, logotipi va brend elementlariga nisbatan hech qanday mulkiy da’vo qila olmaydi.

12. Shaxsiy ma’lumotlar bilan ishlash

12.1. Ishtiroqchilar va ular jamoasig‘a oid shaxsiy ma’lumotlar (F.I.Sh., manzil, aloqa ma’lumotlari, INN/STIR, foto va h.k.) Loyiha doirasida arizalarni qabul qilish, saralash, aloqa va hisobot maqsadida qayta ishlanadi.

12.2. Bank shaxsiy ma’lumotlarni amaldagi qonunchilikka muvofiq himoya qiladi va ularni faqat Loyiha va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarda uchinchi shaxslarga (telekanal, hamkorlar, vakolatli davlat organlari) taqdim etishi mumkin.

13. Javobgarlikni cheklash

13.1. Ishtirokchi tomonidan noto‘g‘ri, chalg‘ituvchi yoki soxta ma’lumotlar taqdim etilishi, uchinchi shaxslar huquqlarining buzilishi, shuningdek ushbu Reglament va Ommaviy oferta shartnomasi talablariga rioya etmaslik oqibatlaridan kelib chiqadigan barcha zararlar uchun Ishtirokchi shaxsan javobgar hisoblanadi.

13.2. Bank va media-hamkorlar ishtirokchining TV kasting yoki finalga chiqmasligi, efir jadvalidagi o‘zgarishlar, texnik nosozliklar (elektr uzilishi, internetdagi uzilishlar va h.k.) bilan bog‘liq yo‘qotishlar uchun javobgar emaslar, bundan qonunchilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan hollar mustasno.

13.3. Loyihada ishtirok etish ixtiyoriy bo‘lib, ishtirokchi ushbu Reglamentni aksept qilish orqali ushbu shartlarni qabul qiladi.

14. Fors-major

14.1. Tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, epidemiyalar, davlat organlarining loyihani to‘xtatishga olib keluvchi qarorlari va boshqa oldindan ko‘rilmaydigan holatlar yuzaga kelganda Tashkilotchi loyihani qisman yoki to‘liq vaqtincha to‘xtatish yoki bekor qilish huquqiga ega.

14.2. Fors-major holatlari tugagach, Tashkilotchi imkoniyatdan kelib chiqib, loyihani davom ettirish yoki uni yakuniy ravishda to‘xtatish masalasini hal qiladi.

15. Yakuniy qoidalar

15.1. Ushbu Reglament Tashkilotchining rasmiy saytiga qo‘yilgan sanadan kuchga kiradi va Loyihaning butun davri mobaynida amal qiladi.

15.2. Bank ushbu Reglamentga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish huquqini saqlab qoladi; bunday o‘zgarishlar Loyiha veb-saytida e’lon qilingan paytdan boshlab amal qiladi.

15.3. Reglamentda nazarda tutilmagan masalalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qo‘llaniladi.